

**XALQ DEPUTATLARI
BERUNIY TUMAN
KENGASHINING
QARORI**



**XALÍQ DEPUTATLARÍ
BERUNIY RAYONLÍQ
KEÑESINIŃ
QARARÍ**

2023 - yil 18 - yanvar

VI-60-4-13-182-K/23

Beruniy tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabr kungi PF-6118-sonli Farmoniga muvofiq
Majburiy ijro byurosi Beruniy tumani bo‘limi tomonidan 2022-yil 12 oyi davomida amalga oshirilgan
ishlari haqidagi hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabr kungi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6118-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash yuzasidan Majburiy ijro byurosi Beruniy tuman bo‘limi boshlig‘ining hisobotini tinglab, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Majburiy ijro byurosi Beruniy tuman bo‘limi boshlig‘i K.Xojambergenovning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Majburiy ijro byurosi Beruniy tuman bo‘limi (Xojambergenov)ga:

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar samaradorligi oshirish;

ijro hujjatlarining majburiy ijrosini ta‘minlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish va kelgusida oldini olishni ta‘minlash choralari ko‘rish;

ijro hujjatlarining majburiy ijrosini ta‘minlash jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlarining hamkorligi, tegishli davlat organlari tomonidan majburiy ijro organlariga taqdim qilinayotgan ijro hujjatlarining miqdori va sifatini tahlil qilib borish;

majburiy ijro harakatlari jarayonida ziddiyatli va nizoli holatlarni keltirib chiqaradigan sabab va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralari ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

bunday jarayonlarga tumandagi fuqarolar yig‘inlari raislari hamda ommaviy axborot vositalari vakillarini keng jalb etish tavsiya etilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi (Kazakov) zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror tuman “Xalq minbari” gazetasida nashr qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

Kengash raisi



A.Saparbayev